



«O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI» AKSIYADORLIK JAMIYATI

BUYRUQ

2021 yil «12» 12

TOSHKENT

№ 1244-11.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ochiq ma‘lumotlar to‘plamlari ro‘yxatini yangilash to‘g‘risida”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-sonli “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” Farmoniga muvofiq, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ rasmiy veb-saytini takomillashtirish, shuningdek, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida” va “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq ochiq ma‘lumotlarga kirishni ta‘minlash maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-sonli “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, uni samarali amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” Farmoni so‘zsiz ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ochiq ma‘lumotlar portalida va “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ rasmiy veb-saytida joylashtiriladigan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma‘lumotlar ro‘yxati ushbu buyruq ilovasiga muvofiq tasdiqlansin (1-ilova).

3. Ochiq ma‘lumotlar to‘plamlarini tayyorlashga mas‘ul jamiyatning bo‘linma va markazlari rahbarlari:

2021-yil 25-dekabrgacha 1-ilovaga muvofiq pasportlar va ochiq ma‘lumotlar to‘plamlari uch tilda (davlat, rus va ingliz) ishlab chiqilishini ta‘minlasin;

ro‘yxatda tasdiqlangan muddatlarda ma‘lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portalida (<https://ma'lumotlar.egov.uz/>), jamiyatning rasmiy veb-saytida (<http://railway.uz/>) va korporativ axborot yagona portaliga (<http://openinfo.uz/>) joylashtirilishi uchun logistikani rivojlantirish va raqamlashtirish bosh boshqarmasiga taqdim etilishi ta‘minlansin.

4. 2015 yil 8-sentyabrdagi 352-N sonli "O‘zbekiston temir yo‘llari" AJ ochiq ma‘lumotlar to‘plami ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish kompaniyaning Chief Digital Officer - logistikani rivojlantirish va raqamlashtirish bosh boshqarmasi boshlig‘i v.b. U.N. Ibragimov zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv raisi v.b.

X.N. Xasilov

2021-yil "20" 12 dagi
"2011-11" sonli buyruqqa ilova

Ochiq ma'lumotlar portalida va "O'zbekiston temir yo'llari" AJ rasmiy veb-saytida joylashtiriladigan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar

RO'YXATI

T/r	Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar)	Ma'lumot joylashtirilgan resurs	Taqdim etish va yangilash muddati	Joylashtirish uchun mas'ul davlat organlari va tashkilotlari
1.	Jamiyatning o'z faoliyatiga oid hisoboti (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno).	Rasmiy veb-sayt	*Har yili 1-martga qadar	NKO
2.	Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan davlat xaridlarini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar).	Ochiq ma'lumotlar portal, rasmiy veb-sayt	Har chorakda	NSR
3.	Mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik pul, transport va yashash bilan bog'liq xarajatlilar (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno).	Ochiq ma'lumotlar portal, rasmiy veb-sayt	Har chorakda	NF, NOK, NI, UDN
4.	Jamiyatning choraklik, yillik buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti	Korporativ axborot yagona portal va rasmiy veb sayt	Har chorakda	NKO, NF
5.	Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari hisobiga xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi ma'lumotlar (xarid e'lon qilinishidan kamida 6 oy oldin).	Rasmiy veb-sayt	Har chorakda	DKS, GRP-AP, GRP-ET, MO
6.	Davlat xaridlari va investitsiya loyihalari doirasida tashkil etiladigan xarid komissiyalarning tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan: xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqidagi qaror; xarid komissiyasi a'zolarining ma'lumotlari (famiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi).	Rasmiy veb-sayt	O'zgarishlar kiritilganda	NN, NSR, DI
7.	Tasdiqlangan yillik xarajatlilar smetasi(biznes-reja)** bilan bir qatorda, uning ijrosi, obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari, avtotransport vositalarini sotib olish va saqlash xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar.	Rasmiy veb-sayt	Har chorakda	NN, NKO, DKS, UM

T/r	Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar)	Ma'lumot joylashtirilgan resurs	Taqdim etish va yangilash muddati	Joylashtirish uchun mas'ul davlat organlari va tashkilotlari
8.	Xizmat avtotransport vositalari, xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlar (tezkor-qidiruv, harbiy va boshqa maxsus xizmatlarda foydalaniladigan ashyolar bundan mustasno).	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	Har chorakda	UM, NKO, UDN
9.	Jamiyat huzuridagi kuzatuv kengashlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan: Jamiyat kengashining tasdiqlangan a'zolari haqidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda ularning aloqa ma'lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari); jamiyat kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar.	Rasmiy veb-sayt	O'zgarishlar kiritilganda	NKO, NGK
10.	Jamiyatning tasdiqlangan yillik ish rejalari (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno).	Rasmiy veb-sayt	Har yili	NGK
11.	Jamiyatda doimiy foydalanish uchun berilgan yer maydonlari va boshqa mol-mulklarni davlat-xususiy sheriklik asosida olgan yuridik va jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar.	Rasmiy veb-sayt	O'zgarishlar kiritilganda	NKO
12.	Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralarning tashqi yoki ishonchli boshqaruvga berilgan davlat ulushi mavjud bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, ishonchli boshqaruvchi tomonidan jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar.	Rasmiy veb-sayt	O'zgarishlar kiritilganda	NKO, DI
13.	Yo'lovchi tashishda temir yo'l yo'nalishlarining ro'yxati.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	O'zgarishlar kiritilganda	L
14.	Davlatlararo bog'lanish punktlari ro'yxati.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	O'zgarishlar kiritilganda	D
15.	Yuk ishlari uchun ochiq bo'lgan temir yo'l stansiyalari ro'yxati.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	O'zgarishlar kiritilganda	M
16.	Temir yo'l yuk vagonlari turlari reyestri.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-sayt	O'zgarishlar kiritilganda	V
17.	Temir yo'l yo'lovchi vagonlari turlari reyestri.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy	O'zgarishlar kiritilganda	L

T/r	Axborotning turi, toifalar nomlanishi (parametrlar)	Ma'lumot joylashtirilgan resurs	Taqdim etish va yangilash muddati	Joylashtirish uchun mas'ul davlat organlari va tashkilotlari
		vab-sayt		
18.	Vokzallar kesimida to'xtab o'tuvchi poyezdlar ro'yxati.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy vab-sayt	O'zgarishlar kiritilganda	L
19.	Yo'lovchi poyezdlari ro'yxati.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy vab-sayt	O'zgarishlar kiritilganda	L
20.	Fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari va murojaat kanallari bo'yicha ma'lumot (telefon, yozma ravishda, vab-sayt va elektron pochta orqali).	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy vab-sayt	Har chorakda	NGK
21.	Mavjud bo'sh ish o'rinlari haqida ma'lumot.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy vab-sayt	O'zgarishlar kiritilganda	NOK
22.	Jamiyatning quyi tashkilotlari, filiallari va hududiy bo'linmalari (nomi, joylashgan joyi, ish tartibi, aholi bilan ishlash bo'yicha telefon raqamlari, rasmiy vab-sayti, elektron pochta manzili, rahbarning F.I.Sh., geografik joylashuvi) haqida ma'lumotlar.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy vab-sayt	O'zgarishlar kiritilganda	NOK
23.	Jamiyatning joylardagi organlari (nomi, joylashgan joyi, ish tartibi, aholi bilan ishlash bo'yicha telefon raqamlari, rasmiy vab-sayti, elektron pochta manzili, rahbarning F.I.Sh., geografik joylashuvi) haqida ma'lumotlar.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy vab-sayt	O'zgarishlar kiritilganda	NOK
24.	Rahbariyatning qabul kunlari va aloqa ma'lumotlari.	Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy vab-sayt	O'zgarishlar kiritilganda	NOK, NGK

* - 2000 yil 15 iyunda O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan tasdiqlangan 47-sonli Nizomga asosan jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha hisoboti kelgusi yil 15-mart hisobot davri muddati etib tayinlangan.

** - Jamiyatning yillik biznes-rejasida barcha iqtisodiy asosiy ko'rsatkichlar aks ettiriladi.